

O'ZBEK VA RUS TILLARIGA TARJIMA QILISH MASALALARI**TARJIMADA EVFEMIZM VA
DISFEMIZMLARNING ETNOMADANIY
XUSUSIYATLARI**

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/ATMX9841

Xurshida Kadirova¹**Abstrakt**

Ushbu maqola o'zbek va rus tillari misolida tarjima jarayonida evfemik va disfemik birliklarning almashinish hodisalariga bag'ishlangan bo'lib, unda ushbu muammoning ayrim sabablari tahlil qilingan. Evfemizm va disfemizmlar sinonimik qatorning har ikki tomonida o'z o'rinlarini egallab, ularning musbat va manfiy qutblar giperbola o'qidagi o'rni misollar bilan ko'rsatilgan. Shuningdek, sinonimik evfemizmlar o'z tarkibida ierarxiyaga ega bo'lib, ilgari tabu evfemizm birliklari disfemizmlarga aylanganligi ham ta'kidlanadi. Muallif tarjimada tarjimonning aqliy madaniyatni bilishi, asliyat tili ruhini saqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *evfemizm, disfemizm, badiiy tarjima, nutqiy vaziyat, sema, manba tili, tarjima tili, tabu, sinonimik qator, o'zgarish*

KIRISH

Evfemizmning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy madaniy va axloqiy qadriyatlarni, dunyoqarash va tafakkur xususiyatlarini nafaqat alohida shaxslarning nutqida, balki umuman zamonaviy muayyan jamiyat nutqi portretida ko'rinish xususiyatiga ega. Evfemizmlarni boshqa tilga o'girishda tarjimonning manba tilidagi jamiyatda qabul qilingan ba'zi hodisalarni to'g'ri baholashga, ular uchun nima yaxshi, maqbul va nima noo'rin, axloqiy me'yor bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan diqqat e'tibori katta ahamiyatga ega. Madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq evfemalarning tutqich bermasligi

¹Kadirova Xurshida Batirovna - filologiya fandlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti.

E-manzil: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Kadirova, X.B. 2023. "Tarjimada evfemizm va disfemizmlarning etnomadaniy xususiyatlari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 128-137. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/ATMX9841.

sababidan bu o'zgarishlarni mantazam ravishda o'rganish zarurati kelib chiqadi. Bunda qo'yilgan masalaning o'rganish obyekti sifatida adabiyot, xususan, badiiy tarjima maydonga chiqadi.

ASOSIY QISM

Evfemizatsiya badiiy matnlarda tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida ishlatiladi. Bu uslubda evfemizmlar nafaqat gapni yumshatish, balki estetik vazifasini ham bajaradi, degan edi Moskvina [Moskvina 2010]. Ammo disfemizm to'g'risida bunday deb bo'lmaydi. Uning qo'llanilish vaziyatiga nutq sohibining tabiati, milliy madaniyati, tarbiyasi kabi qirralari kashf etiladi. U evfemizm singari tilga badiiy shakl yoki yumoristik samara beradimi yoki yo'qmi, yorqin badiiy obrazlarni yaratishda qahramon obrazini yorita oladimi yoki yo'qmi, har qalay, disfemizm asar muallifi tomonidan qo'llanilishga haqli usul bo'lib, tarjimada manba tilini o'girma tilda yetkazish uchun qo'llanilishi munozarali masaladir. Zero, u evfemizmdan badiiy matnda dekorativ funksiyani bajarishi mumkin emas.

*“Shu daqiqada unda ham, birdan aybi ochilib, sharmanda bo'lgan kishilarda yuz beradigan hodisa yuz berdi. U siri ochilgandan keyin xotini oldida **basharasiga** qanday tus berishini oldindan o'ylab qo'ymagan edi.”* [Толстой 1980]

Tilshunoslikda nominativ birliklarni o'rganishda semantikaning konnotativ jihatiga alohida e'tibor beriladi. V.N.Teliyaning fikriga ko'ra “konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat”dir. [Teliya 1986] Shunga ko'ra, konnotatsiya so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga nisbatan munosabatiga bog'liq bo'lgan jihatdir. *Yuz, bet, chehra, ruxsori, aft, bashara, turq* kabi so'zlar qatorida tegishli nutq vaziyati va subyektiv nuqtayi nazarga muvofiqligini tanlash so'zlovchining o'ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma'lum. [Cho'lpon so'zining sirlari http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html] Tarjimada esa konnotativ modallikni yo'qotish mumkin bo'lsa mumkindir, ammo qo'shish, va eng asosiysi, salbiy tomonga o'zgartirish tarjima tili o'quvchisi uchun manba tilidagi mental madaniyat to'g'risida noto'g'ri tasavvur uyg'otishiga olib keladi. Bu jumla asliyatda quyidagicha:

“С ним случилось в эту минуту то, что случается с людьми, когда они неожиданно уличены в чем-нибудь

слишком постыдном. Он не сумел приготовить свое лицо к тому положению, в которое он становился перед женой после открытия его вины.” [Tolstoy 1878]

Har qanday lisoniy birliklarni qo'llash yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, bunda uning shu birlikka bo'lgan munosabati, so'z tanlash va uni qo'llashdagi o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bunda tarjimon aslyat bilan “kimo'zar” o'ynashdan o'zini tiyishi, neytral vazifadagi birlikka hosila ma'no berishdan o'zini olib qochishi, eng asosiysi, disfemik kayfiyat uyg'otishdan saqlanishi kerak.

Yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol leksik paradigmasida barcha a'zolarining denotativ semalari bir xil: «inson a'zosi», «boshining old qismi». *Yuz* sememasida konnotativ sema mavjud emas. Lekin *bet, aft, bashara, turq* sememalarida «salbiy munosabat» konnotativ semasi mavjud bo'lsa, *chehra, jamol* leksemalari sememasida «ijobiy munosabat» konnotativ semasi mavjud. [Hakimova 2008]

A.Hojiyev *bet* so'zini izohlar ekan, uning *yuz* so'ziga juda yaqinligini, ammo unga nisbatan sal salbiy ottenkaga egaligini aytadi. [Xadjimusayeva, Ergashev 2016] Graduonimik jihatdan *bashara* leksemasi *bet* leksemasidanda quyiroq pozitsiyani egallashi esa kundek ravshan. Sinonimik qatorda evfemik va disfemik birliklar ortofemik ifodali birlikka nisbatan musbat va manfiy qutblarni egallab, o'zaro ifoda bo'yog'i, subyektiv munosabat darajasi bilan farqlanadi. Shuning uchun, bu birliklar sirasiga denotativ darajalanishni aks ettiruvchi graduonimiyadan ko'ra gradatsiya (uslubiy darajalanish)ni qidirish maqsadga muvofiq. Demak, uslubiy jihatdan tarjimon to'la ma'noda neytral ifodaga salbiy ottenka berib, xatoga yo'l qo'ygan. Quyidagi misolda esa u evfemik ifodani disfemik ifodaga almashtirganini ko'ramiz:


“Она, это вечно озабоченная, хлопотливая, и недалекая, какою он считал ее, Долли, неподвижно сидела с запиской в руке и с выражением ужаса, отчаяния и гнева смотрела на него”

“*Hamisha nimaningdir g'amini yeb urinib yuradigan, erining fikricha kaltafahm hisoblangan Dolli xatni ushlaganicha qimir etmay o'tirar, dahshat, umidsizlik va g'azab ifoda etgan ko'zlari bilan eriga tikilib qarar edi*”


Ikkala birliklarning o'z tarkibiy darajalanishda disfemiklik/evfemiklik qiymati yuqori va past birliklar ajratiladi. Xususan, *kaltafahm* ifodasi asar muallifining недалёкий ifodasi bilan ekvivalentlik nuqtayi nazardan bir qatorda bo'lsa-da, undan salbiyroq munosabatni ifodalash darajasi yuqori ekanligi bilan

farqlanadi. Uning o'rniga *kaltabin* ifodasi muayyan ma'noda mos kelishi mumkin edi.

Qiyoslaymiz:



Demak, *kaltafahm* va *kaltabin* birliklari darajalanish qatori "salbiy bo'yoqning o'sib borishi" belgisi asosida tuzilgan bo'lib, ularning iks-femiklik xususiyati ana shu pozitsiyadan kelib chiqib aniqlanadi. "Kaltalik" "axmoqlik" belgisi ekan, uning qo'llanilish doirasi ko'pincha disfemizatsiyani, biroq ortofemik ahmoq ifodasidan ko'ra nutq vaziyatida evfemizatsiyani tashkil etishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu birliklar Abdulla Qodiriy ijodida qo'llanilgan boshqa birliklar bilan darajalanish o'qida quyidagi pozitsiyani egallaydi:



Shuni aytib o'tish kerakki, Abdulla Qodriyning "O'tkan kunlar" asarining tarjimasida ham O'zbek oyimga nisbatan недалекий birligi nisbatan o'rinli qo'llanilgan:

"Юсуфбек-хаджи, хорошо зная взбалмошный характер своей недалёкой жены, решил не рассказывать ей ничего о том, что произошло с Атабеком, не раскрывать его тайн, но счел необходимым предупредить Узбек-аим о приезде

маргиланской невестки и ее родителей.” [Кадыри 2009]

*“Yusufbek hoji **chala-dumbul tabiatlik** xotinining **fe’li xo’yini yaxshi bilgani uchun o’tkan voqi’larni, ya’ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo’lsa ham, ammo marg’ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi.”***

Asliyatda “dumbullik” ko’chma ma’noda “hayot tajribasiga ega bo’lmagan”, “g’o’rlik” mazmunida kelib, aslida, uning “chala”ligi esa “g’o’rlik” emas, balki aqllilikka yarim barobar yetmagan ma’nosini berishi kerak, ya’ni “g’o’rlik”dan biroz yuqori – “aqillilik”ka yaqinroq. Lekin “chala” so’zining o’zi salbiy ottenkaga ega bo’lgani uchun nutq vaziyatida – xalq tushunchasida bu birikma salbiy birlik sifatida qabul qilinadi. Tarjima tilida shu hosila ma’no uzvlarining mavjudligini ko’ramiz. Konnotatsiya emotiv qiymatga ega bo’lib, bu birlik manba tilidagi mental borliqni to’g’ri baholagan holda idrok etilish va aks ettirish mahsuli sifatida namoyon bo’ladi. Nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzviy bog’liq bo’lgan evfemizmnining ta’sir etish vazifasidan samarali foydalanilgan.

Взбалмошный характер va *fe’li xo’yi* birliklari alohida olinganda noto’liq (privativ) ziddiyat hosil qiladi. Mazkur birliklarning qo’llanilishi har qaysi tilda idrok etilish darajasi (axloqiy, irim, nutq madaniyati, saviya, ijtimoiy soha) talabi bilan “yumshoq yoki yumshoq emas”ligi belgisiga ko’ra *fe’li xo’yi* majhul, взбалмошный manfiy munosabat kasb etadi. Demak, bu badiiy tarjimada ham muayyan miqdorda evfemik va disfemik vaziyat almashinuviga duchor bo’ladi.

Paradoksal ravishda, aksariyat qo’pol so’zlar va iboralar (disfemizmlar) – avvallari tabulashtirilgan leksikaga tenglashtirilgan, keyin esa xalq tomonidan nozik hisoblangan kasallik, jinsiy aloqa, o’lim kabi mavzularni tasvirlashda ataylab yumshatilgan sobiq evfemizmlardir. [Lotman 1999] Darhaqiqat, tilning ichki resursida ham bunday almashinuv sodir bo’lishi endilikda sir emas. Buni biz o’zbek tilidagi “bokira” so’zi bilan tahlil qilishimiz mumkin. “Anna Karenina”ning tarjimasida Levin nutqida qo’llanilgan bu so’zning muayyan miqdorda quyi stil ottenkasi sezilib turadi: *“Masalan, sen uylangansan, sen bu hisni bilasan... shunisi dahshatliki, biz anchagina yashagan, o’tmishda... muhabbat emas, gunoh orttirgan odamlarmiz. Birdan pokiza, bokira bir vujudga yaqinlashamiz; bu jirkanch narsa, shuning uchun bunday odam o’zini noloyiq deb his etolmay turolmaydi.”* [Tolstoy 1980]

Bu tushunchaning tabu varianti tilimizda yo’qolib ketgan bo’lib, arabchadan olingan “dastlabki meva” ma’nosini beruvchi

“bokira” leksemasi uni yumshatish uchun qoʻllanilgan. Endilikda bu soʻzni eshitgan odam uchun uning yashirin maʼnosi sir boʻlmay evfemiklik xususiyatini yoʻqotib, “er koʻrmagan”, “turmushga chiqmagan” maʼnolari ostida tabu oʻrnini sekin-sekin egallamoqda. Tabuning oʻzini qoʻllash esa disfemiyatsiyani yuzaga keltiradi. Manba tilidagi ijobiy qahramon nutqida esa nozik mavzuga boʻlgan munosabati, ichki madaniyati, istihola saqlanib qolingani: *“Вот ты женился, ты знаешь это чувство... Ужасно то, что мы – старые, уже с прошедшим... не любви, а грехов... вдруг сближаемся с существом чистым, невинным; это отвратительно, и потому нельзя не чувствовать себя недостойным”*

Xuddi shunday “jonon”, “doʻndiqcha” soʻzlarini ham olish mumkin. U fohishaga nisbatan – evfemik; tarbiyali, toʻgʻri hayot kechiruvchi ayol uchun disfemizmdir. Levin munosabati asosda qurilgan muallif nutqiga koʻchgan bu soʻz Levinga nisbatan salbiy sifat soya solgan: *“Xotinlar koʻpincha xunuk, oddiy odamlarni yaxshi koʻrishadi, deb eshitgan boʻlsa ham, bunga ishonmasdi, chunki u bu narsani oʻziga qarab yechar, oʻzi esa faqat **chiroyli, sirli va jonon** ayollarnigina yaxshi koʻrardi.”* Bu birlik oʻzbek tilida vaqt oʻtishi bilan oʻziga evfemik qobiqlik talab etib qolgan. Rus tilida esa bunday holatni koʻrmaymiz: *“Слышал он, что женщины любят часто некрасивых, простых людей, но не верил этому, потому что судил по себе, так как сам он мог любить только красивых, таинственных и особых женщин.”*

1988-yilda A.M.Katsev evfemizm bilan disfemizm oʻrtasidagi farqni keskin qoʻygan edi: дисфемизм не есть эвфемизм сниженного стиля. Дисфемизм является антиподом, а не разновидностью эвфемизма. Дисфемизм противоположен эвфемизму, но не в стилистическом, а в ассоциативно-денотативном плане [Katsev 1988]. Lekin bu xulosalarda ham jon bordek, nazarimizda. Har ikki hodisa ham okkazional xarakterga ega boʻlib, ular mudom oʻzgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli oʻlaroq, evfemizm vaqt oʻtib, lisoniy birlikka aylanish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, oʻz evfemik xususiyatini ham yoʻqota oladi. Bu tez-tez qoʻllanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, vaqt oʻtishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizatsiyasi samarasiz boʻladi, chunki ular biron bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda oʻz maʼnosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi. [Pastuxova 2016] Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolish bilan xarakterlanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, birinchi navbatda, Sanjar Siddiqning tarjimada ro'y beradigan yanglishlarini uchga ajratishini esga olamiz:

“Birinchi xil xatolar — *bilimsizlikdan, tilni yaxshi bilmaslik hamda so'zlarning o'rniga qarab turli ma'noda kelishini anglab yetmaslik natijasidir.*

Ikkinchi xil xatolar — *tildagi sinonimlardan, tilning lug'at boyligidan xabarsizlik, ya'ni har bir tilning o'ziga xos iboralarining ichki mazmunidan begonalik natijasida va nihoyat:*

Uchinchi xil xatolar — *jumla va tarkiblarni o'girishdagi loqaydlikdan kelib chiqadi.” [O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi 1985]*

Bu xil xatolar evfemik va disfemik birliklarning almashinuviga olib kelishi, natijada manba tili ruhining tarjima tilida aks etmasligiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, muayyan tilning o'zida biror tushuncha birdan ortiq nomga ega. Masalan, o'zbek tilida «Aldab, chalg'itib, har qanday ishni o'z foydasiga hal qiladigan, makr-hiylaga usta» ma'nosi 15ta leksemada ifodalangan: *ayyor, mug'ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog'uli, mo'ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston*. Bu ham ma'no va nom o'rtasidagi bog'liqlikning tabiiy emasligini ko'rsatadi. [Hakimova 2008] Tarjimada uning mosini tanlash yuksak tajriba, mas'uliyat va bilim zahirasini talab etadi. Zero, sinonimik qatorda nominativ – figural ma'nolar, asos va hosila ma'nolar, salbiy – ijobiy ma'nolar, monosemantik – polisemantik ma'nolar mavjud ekan, nutq vaziyatida uning evfemik va disfemik vazifa bajarishi mumkin bo'lgan jihatlariga tarjimada e'tibor qaratilishi kerak.

Uchinchidan, har bir tilning o'z nutqiy qo'llanilish taraqqiyoti natijasida evfemik/disfemik vaziyat almashinuvi bo'lib, tarjimada ulardan foydalanishga ehtiyotsizlik qilishga, o'quvchi psixologik tasavvurida noto'g'ri kartina chizishga, milliy ruhni o'zgartirishga haqi yo'q.

Adabiyotlar

Beysenova, A., & Kadirova, X. (2022). “Zamonamiz qahramoni” asarida qo'llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o'zbek va rus tillari misolida). *Uzbekistan Language and Culture*, 5(1). Retrieved from <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>

Кадирова, Х. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMi İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue:

- 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Кадилова, Х. 2022. *Проблемы перевода узбекских эвфемизмов на русский язык* // O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, [1/9/1] ISSN 2181-7324 / Общественные науки. [https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022\(3-bolim\).pdf#page=38](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022(3-bolim).pdf#page=38)
- Кадилова Х. Б. 2021. *Эвфемический и дисфемический смысл в структурно-прагматическом анализе* // Мировая наука. – №. 4. – С. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEMICESKIJ_I_DISFEMICESKIJ_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIJ-I-DISFEMICESKIJ-SMYSL-V-STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM-ANALIZE.pdf
- Кадилова Х.Б. 2020. *Эвфемико-дисфемистические значения в пересечении структурно-прагматического анализа* // Международный научный обзор проблем философии, психологии и педагогики // Boston. USA. January 28-29, Ст. 19-23. URL: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf>
- Кадыри, А. 2009. *Минувшие дни*. (перевод Мухаммаднодыра Сафарова). – Ташкент: Шарк. 430 с.
- Кацев, А. М. 1988. *Языковое табу и эвфемия* / А. М. Кацев. – Л.: Ленингр. гос. пед. ин-т им. А.И. Герцена, – 75 с
- Лотман, Ю. М. *Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история* / Ю. М. Лотман. – М.: Языки русской культуры, 1999.
- Москвин, В.П. 2010. *Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка*. Волгоград: Ленанд, – 264 с.
- Пастухова, О.Д. 2016. *От эвфемизма к дисфемизму*. // Слово, высказывание, текст в когнитивным, прагматическом и культурологическом аспектах. Материалы VIII Международной научной конференции, Челябинск, 20-22 апреля 2016 года. Из-во: Энциклопедия.
- Телия В.Н. 1986. *Коннотативный аспект семантики номинативных единиц*. Москва: Наука, С. 5 – 143 с.
- Толстой, Л. 1980. *Анна Каренина* (Мирзакалон Исмоилий таржимаси). – Тошкент, Ғофур Ғулом.
- Толстой, Л. 1878. *Анна Каренина*. «Эксмо», — (Библиотека всемирной литературы). – 165 с.
- Чўлпон сўзининг сирлари. 2002. Тошкент: Маънавият, Электрон ресурс: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
- Ўзбекистонда бадиий таржима тарихи. 1985. С.Мамажонов таҳрири остида. – Т., “Фан”,– 176 б.
- Хаджимусаева, Н.Н., Эргашев, Ў. 2016. “Орзигул”даги юз, бет, жамол, дийдор, турк синонимларининг стилистик хусусиятлари ҳақида.//Дефектологиянинг долзарб масалалари. Респу-

ETHNO-CULTURAL CHARACTERISTICS OF EUPHEMISMS AND DYSPHEMISMS IN TRANSLATION

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/ATMX9841

Kadirova Khurshida¹

Abstract

This article is devoted to the phenomena of exchange of euphemistic and dysphemetic units in the process of literary translation on the example of the Uzbek and Russian languages, which analyzes some of the causes of these problems. In it, euphemisms and dysphemisms occupy places on both sides of the synonymous row, and their place on the axis of the positive and negative poles is illustrated by examples. It is also argued that synonymous euphemisms have a hierarchy in their composition and that euphemistic units that were previously tabooed have turned into dysphemisms. The author emphasizes the importance of the skill of a translator who understands the mental culture and tries to preserve the spirit of the source language in the target language.

Key words: *euphemism, dysphemism, literary translation, speech situation, seme, source language, target language, taboo, synonymous row, change.*

Reference

- Beysenova, A., & Xurshida, X. (2022). *"Zamonamiz qahramoni" asarida qo'llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o'zbek va rus tillari misolida)*. Uzbekistan Language and Culture, 5(1). Retrieved from <http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/4>
- Kadirova, X. 2021. *Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode*. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. – AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Kadirova, X. 2022. *Problemi perevoda uzbekskix evfemizmov na russkiy*

¹Kadirova Khurshida Batirovna – Candidate of Philological Sciences, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Associate Professor of the Department of Uzbek Language Education in Foreign Language Groups.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

For reference: Kadirova, Kh. B. 2023. *"Ethno-cultural characteristics of euphemisms and dysphemisms in translation"* Uzbekistan: Language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 128-137. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/ATMX9841.

- yazik // O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, [1/9/1] ISSN 2181-7324 Obshestvennie nauki. [https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022\(3-bolim\).pdf#page=38](https://science.nuu.uz/admin/pdf/Uzmu-191-2022(3-bolim).pdf#page=38)
- Kadirova X. B. 2021. *Evfemicheskiy i disfemicheskiy smisl v strukturno-pragmaticheskoy analize* // Mirovaya nauka. – №. 4. – S. 123-125. URL: https://www.researchgate.net/profile/Xurshida-Kadirova/publication/352902189_EVFEMICESKIY_I_DISFEMICESKIY_SMYSL_V_STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM_ANALIZE/links/60ded7dca6fdccb745fc067c/EVFEMICESKIY-I-DISFEMICESKIY-SMYSL-V-STRUKTURNO-PRAGMATICESKOM-ANALIZE.pdf
- Kadirova X.B. 2020. *Evfemiko-disfemisticheskie znacheniya v peresechenii strukturno-pragmaticheskogo analiza* // Mejdunarodniy nauchniy obzor problem filosofii, psixologii i pedagogiki // Boston. USA. January 28-29, St. 19-23. URL: <https://scientific-conference.com/images/PDF/2020/16/euphemic-dysphemistic-values.pdf>
- Kadiri, A. 2009. *Minuvshie dni*. (perevod Muxammadnodira Safarova). – Tashkent: Shark. 430 s.
- Katsev, A. M. 1988. *Yazikovoe tabu i evfemiya* / A. M. Katsev. – L.: Leningr. gos. ped. in-t im. A.I. Gertsena, – 75 s
- Lotman, Yu. M. 1999. *Vnutri mislyashix mirov*. Chelovek – tekst – semiosfera – istoriya / Yu. M. Lotman. – M.: Yaziki russkoy kulturi,
- Moskvin, V.P. 2010. *Evfemizmi v leksicheskoy sisteme sovremennogo russkogo yazika*. – Volgograd: Lenand, – 264 s.
- Pastuxova, O.D. 2016. *Ot evfemizma k disfemizmu*. // Slovo, viskazyvanie, tekst v kognitivnim, pragmaticheskoy i kulturologicheskoy aspektax. Materiali VIII Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, Chelyabinsk, 20-22 aprelya 2016 goda. Iz-vo: Entsiklopediya.
- Teliya V.N. 1986. *Konnotativniy aspekt semantiki nominativnix yedinit*. Moskva: Nauka, S. 5 – 143 s.
- Tolstoy, L. 1980. *Anna Karenina* (Mirzakalon Ismoilij tarjimasi). Toshkent, G'ofur G'ulom.
- Tolstoy, L. 1878. *Anna Karenina*. «Eksmo», — (Biblioteka vsemirnoy literaturi). – 165 s.
- Cho'lpon so'zining sirlari. 2002. Toshkent: Ma'naviyat, Elektron resurs: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
- O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi. 1985. S.Mamajonov taxriri ostida. T, "Fan",– 176 b.
- Xadjimusaeva, N.N., Ergashev, O'. 2016. *"Orzigul"dagi yuz, bet, jamol, diydor, turk sinonimlarining stilistik xususiyatlari haqida*.// Defektologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016 yil 30 may. – Toshkent: TDPU. B. 217-219
- Hakimova, M. 2008. *Semasiologiya*. O'quv qo'llanma. Toshkent: XT «Xamidov N.X» matbaa korxonasi, B.40. – 100 b.